



*2025- yil yanvar-fevral oylari uchun
dastlabki ma'lumot*

TOSHKENT VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

2025- yil yanvar-fevral oylarida Toshkent viloyatining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 807,9 mln. AQSH dollariga yetdi va 2024- yilning mos davriga nisbatan -4,6 mln. AQSH dollariga yoki 99,4 % ni tashkil qildi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-fevral 2025 y., mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2025- y.: **807,9** 99,4 %

(2024- y.: **812,4**)



Saldo

2025- y.: **-303,1** (2024- y.: - 288,2)




Eksport

2025- y.: **252,4** 96,3 %

(2024- y.: **262,1**)


TSAdagi ulushi, % da



Import

2025- y.: **555,5** 100,9 %

(2024- y.: **550,3**)



Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarning tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 252,4 mln. AQSH dollariga (2024- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 96,3 % ni tashkil qildi) va import hajmi 555,5 mln. AQSH dollariga (o‘tgan yilga nisbatan 100,9 % ni tashkil qildi) yetdi. Hisobot davrida -303,1 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2025- yil yanvar-fevral mln. AQSH dollari)

XXR TSA – 255,6 Eksport: 62,8 Import: 192,8  31,6 %	Rossiya TSA – 201,0 Eksport: 84,7 Import: 116,3  24,9 %	Qozog‘iston TSA – 93,3 Eksport: 14,3 Import: 79,0  11,5 %	Turkiya TSA – 49,1 Eksport: 27,2 Import: 21,9  6,1 %	Belorussiya TSA – 18,3 Eksport: 3,2 Import: 15,1  2,3 %
Germaniya TSA – 23,1 Eksport: 1,1 Import: 22,0  2,9 %	Afg‘oniston TSA – 14,3 Eksport: 14,2 Import: 0,1  1,8 %	Italiya TSA – 10,9 Eksport: 4,1 Import: 6,8  1,3 %	Tojikiston TSA – 17,3 Eksport: 7,8 Import: 9,5  2,1 %	Oirg‘iz Respublikasi TSA – 7,8 Eksport: 4,4 Import: 3,4  1,0 %



YIRIK HAMKOR DAVLATLAR


BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(2025- yil yanvar-fevral, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2025- y.	2024- y.
XXR	255,6	228,1
Eksport	62,8	74,3
Import	192,8	153,8
Rossiya	201,0	210,2
Eksport	84,7	90,7
Import	116,3	119,5
Qozog'iston	93,3	98,3
Eksport	14,3	12,9
Import	79,0	85,4
Turkiya	49,1	62,5
Eksport	27,2	28,1
Import	21,9	34,4
Braziliya	20,0	1,6
Eksport	0,0	0,0
Import	20,0	1,6
Belorussiya	18,3	18,8
Eksport	3,2	3,0
Import	15,1	15,8
Germaniya	23,1	18,8
Eksport	1,1	1,3
Import	22,0	17,5
Italiya	10,9	32,4
Eksport	4,1	2,8
Import	6,8	29,6
Shveysariya	0,9	0,7
Eksport	0,4	0,0
Import	0,5	0,7
Tojikiston	17,3	10,0
Eksport	7,8	6,2
Import	9,5	3,8




HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2025- yil yanvar-fevral, mln. AQSH doll.)*





TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2025- yil yanvar-fevral, mln. AQSH dollari, ulushi)



2025- yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 43,7 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasi 2024- yilning mos davriga nisbatan 99,0 % ni tashkil etdi.



Toshkent viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2024- yilning mos davriga nisbatan 99,8 % ni tashkil etdi va jami TSAdagi ulushi 56,3 % ni tashkil etdi.

Toshkent viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2025- yil yanvar-fevral oylarida 353,0 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 119,6 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 233,4 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2025- yil yanvar-fevral, ulushi % da)

Rossiya – 24,9



Qozog'iston – 11,5



Belorussiya – 2,3



Tojikiston – 2,1



Qirg'iz
Respublikasi – 1,0




Turkmaniston – 0,7



Ukraina – 0,5



Ozarbajjon – 0,6



Toshkent viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (24,9 %), Qozog'iston (11,5 %) hamda Belorussiya (2,3 %) davlatlari bilan qayd etildi.






Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 405 taga yetdi va ular tomonidan 252,4 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2024- yilning mos davriga nisbatan 96,3 % ni tashkil etdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2025- yil yanvar-fevral ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



TOSHKENT VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI *(yanvar-fevral oylarida, yillar kesimida)*


XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2024	2025	2024	2025	2024	2025
Jami eksport	262,1	252,4	97,9	96,3	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	27,8	34,6	103,0	123,8	10,6	13,7
Ichimliklar va tamaki	1,1	1,2	2,5 m.	109,8	0,4	0,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	9,0	7,9	166,1	87,2	3,5	3,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2,0	1,2	3,5 m.	58,2	0,8	0,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,6	2,9	-	176,9	0,6	1,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	12,9	16,1	99,1	124,9	4,9	6,4
Sanoat tovarlari	152,6	140,1	85,9	91,9	58,2	55,4
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	9,9	11,5	2,1 m.	116,2	3,8	4,6
Turli xil tayyor buyumlar	44,6	34,0	115,1	76,3	17,0	13,5
Xizmatlar	0,6	2,9	143,5	5,3 m.	0,2	1,2

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,8 % ni tashkil etib, ulardan yuqori ulush sanoat tovarlari (55,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (13,7 %) va turli xil tayyor buyumlar (13,5 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2025- yilning yanvar-fevral oyilarida MDH mamlakatlariga eksport ulushi 47,4 % ni tashkil etib, (2025- yil yanvar,-fevral mln. AQSH dollari)


MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI



2025- yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Turkiya, Qozog'iston, Afg'oniston, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 85,4 % ni tashkil etdi.




TOSHKENT VILOYATI EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2025- yil yanvar-fevral, % da)





TOSHKENT VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2025- yil yanvar-fevral, mln.AQSH doll.)*





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2025- yil yanvar-fevral oylarida 15,5 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan.

Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 8,1 mln. AQSh dollariga teng 13,8 ming tonnadan ortiq sabzavot shuningdek, 3,2 mln. AQSh dollari qiymatidagi 1,7 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

2025- yil yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo‘lgan 8,1 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2025- yil yanvar-fevral, miqdori va hajmi)



Meva va
rezavorlar
1,7 ming tonna
3,2 mln. AQSH
dollari

Uzum
2,2 ming tonna
2,0 mln.
AQSH dollari

Yeryon-g'oqlar
0,3 ming tonna
0,4 mln. AQSH
dollari

Sabzavotlar
13,8 ming tonna
8,1 mln. AQSH
dollari



TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI




2025- yilning yanvar-fevral oylarida import hajmi 555,5 mln. AQSH dollarini va

2024- yilning mos davriga nisbatan 100,9 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (29,8 %), sanoat tovarlari (16,2 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (11,6 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2025- yil yanvar-fevral, ulushi % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2025- yilning yanvar-fevral oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,2 mln. AQSH dollariga ko'paydi va 555,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,6 mln. AQSH dollariga yetdi.




TOSHKENT VILOYATINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-fevral oylarida, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2024	2025	2024	2025	2024	2025
Jami import	550,3	555,5	89,0	100,9	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	106,9	115,1	94,3	107,7	19,4	20,7
Ichimliklar va tamaki	0,7	0,7	142,4	94,9	0,1	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	32,7	48,0	23,9	146,8	5,9	8,6
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	58,2	36,0	121,5	62,0	10,6	6,5
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	13,9	22,5	85,2	162,2	2,5	4,1
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	45,2	64,7	79,3	143,4	8,2	11,6
Sanoat tovarlari	69,6	90,1	96,1	129,4	12,7	16,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	188,7	165,4	117,5	87,6	34,3	29,8
Turli xil tayyor buyumlar	9,7	12,0	94,1	122,9	1,8	2,2
Boshqa tovarlar	23,5	0,4	37,0 m.	1,8	4,3	0,1
Xizmatlar	1,2	0,6	133,0	49,9	0,2	0,1

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

 2025- yil yanvar-fevral oylari MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI
natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan ulushi
42,0 % ni tashkil etib, 2024- yilning mos(2025- yil yanvar-fevral, mln. AQSH dollari)
davriga nisbatan 0,7 % ga kamaygan.



 2025- yil yanvar-fevral oylarida yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Italiya, Belorussiya va Germaniya) jami importning 81,6 % ni tashkil etdi.



TOSHKENT VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2025- yil yanvar-fevral, % da)





TOSHKENT VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2025- yil yanvar-fevral, mln. AQSH doll.)

